



**SHAMSUDDIN BOBOXONOVNING O'ZBEKISTON MUSTAQILIKGA ERISHISH
OSTONASIDA, IJTIMOYIY BIRLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK, DINIY
BAG'RIKENGLIK G'OYASINI AMALGA OSHIRISHDA QO'SHGAN HISSASI**

O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi

“Islomshunoslik” fakulteti magistranti

Umarova Soliha Saidabzal qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sobiq sovet tuzumi tugatilib, O'zbekiston mustaqillikka erishayotgan muhim ijtimoiy-siyosiy vaziyatda, muftiy, diplomat sharqshunos hamda islomshunos olim Shamsuddin Boboxonovning ijtimoiy birlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi milliy g'oyalimizni targ'ib qilishda qo'shgan hissasi, mustaqil O'zbekiston nomini jahon maydonlarida tanilishidagi diplomatik faoliyati yoritilgan

***Kalit so'zlar:** Shamsuddin Boboxonov, bolsheviklar, tinchlik, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, ma'naviyat, fatvo, islomshunos, sharqshunos, mafkuraviy immunitet*

**THE CONTRIBUTION OF SHAMSUDDIN BABAKHANOV TO THE IMPLEMENTATION OF THE IDEAS
OF SOCIAL UNITY, INTERETHNIC HARMONY, AND RELIGIOUS TOLERANCE ON THE EVE OF
UZBEKISTAN'S INDEPENDENCE**

International Islamic Academy of Uzbekistan

Master's student of the *Islamic Studies* Faculty

Umarova Soliha Saidabzal qizi

ABSTRACT

This article examines the contribution of Mufti, diplomat, orientalist, and Islamic scholar Shamsuddin Babakhanov during the critical socio-political period when the former Soviet system was collapsing and Uzbekistan was approaching independence. The study highlights his significant role in promoting national ideals such as social unity, interethnic harmony, and religious tolerance. In addition, the article analyzes Babakhanov's diplomatic activities, through which he contributed to the international recognition of independent Uzbekistan on the global stage.

***Keywords:** Shamsuddin Babakhanov, Bolsheviks, peace, religious tolerance, interethnic harmony, spirituality, fatwa, Islamic studies, Oriental studies, ideological immunity*

**ВКЛАД ШАМСУДДИНА БАБОХАНОВА В РЕАЛИЗАЦИЮ ИДЕЙ СОЦИАЛЬНОГО ЕДИНСТВА,
МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ И РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ НА ПОРОГЕ
НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА**

Международная исламская академия Узбекистана

магистрант факультета «Исламоведение»

Умарова Солиха Саидабзаловна

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вклад муфтия, дипломата, востоковеда и исламоведа Шамсуддина Бабоханова в период ликвидации советской системы и становления независимости Узбекистана. Особое внимание уделяется его роли в продвижении национальных идей социального единства, межнационального согласия и религиозной толерантности. Также анализируется дипломатическая деятельность Шамсуддина Бабоханова, способствовавшая международному признанию независимого Узбекистана на мировой арене.



Ключевые слова: Шамсуддин Бабоханов, большевики, мир, религиозная толерантность, межнациональное согласие, духовность, фетва, исламоведение, востоковедение, идеологический иммунитет

«XX asr vabosi» – bolsheviklar inqilobiga qadar butun olamdagi singari O'zbekiston hududida ham din jamiyatning ma'naviy ozig'i vazifasini bajarib kelgan. Dinning xalqimiz tarixida, milliy dunyoqarashi va o'ziga xos sharqona an'analari shakllanishida tutgan o'rni beqiyosdir.

Mustaqillik tufayli o'zligimizni anglayotgan, ma'naviy qadriyatlarimiz qayta tiklanayotgan hozirgi paytda g'urur bilan bemalol aytishimiz mumkinki, ota-bobolarimiz dini, imoni, vijdoni bo'lib kelgan bizning mintaqaviy islom dinimiz o'ziga xos, o'zbekona tusga ega, ya'ni o'zbekchilik bilan uyg'unlashib ketgandir.

Mustaqillikning ilk yillarida O'zbekiston ana shu tarixiy an'analarga sodiq qolgan holda jamiyatda ijtimoiy bag'rikenglik va hamjihatlik ruhi ustuvor bo'lishiga qaratilgan siyosat olib borganligi va uning natijasida xalqimiz jipslashib, turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida hamkorlikni ta'minlash va yaxshilash jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyot uchun yo'l ochadi. Aksincha, ana shu hamkorlikning izdan chiqishi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik va boshboshdoqlik, milliy parokandalik va tanazzulni keltirib chiqaradi.

Mazkur davrda o'zbek jamiyatida qadim-qadimdan shakllanib kelayotgan diniy bag'rikenglik tushunchasi hamda sobiq sovet mafkurasi inqilobi davrida ma'naviyat targ'ibotchilari qatorida – mustaqil O'zbekiston diniy-ma'rifiy targ'ibotchisi Shamsuddin Boboxonovning o'rnilari katta

Shamsuddinxon Ziyuddinxon o'g'li Boboxonov. 1937-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1959-yili Toshkent chet tillar instituti ingliz tili fakultetini bitirdi. 1962-1966 yillari Qohiradagi "Al-Azhar" dorilfununida o'qidi. 1973-yili Moskvada arab filologiyasi bo'yicha nomzodlik ishini yoqladi. 1975-1982 yillari Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti rektori, 1982-1989 yillari O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi raisi, muftiy, 1989-1994 yillari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida katta ilmiy xodim lavozimida xizmat qildi. "Ming bir fatvo", "Al-Adabul mufrad" (tarjima), "So'nmas ziyo" kabi bir necha asarlari chop etilgan. 1994-yildan 2003-yilgacha diplomatiya sohasida xizmat qildi. Misr, Saudiya Arabistoni, Iordaniya kabi davlatlarda O'zbekistonning elchisi bo'ldi.

Yurtimiz hamda xalqaro miqyosda millatlar va dinlararo hamjihatlik va do'stlik aloqalarni o'rnatish, bag'rikenglik tuyg'ularini keng yoyishda Muftiy Boboxonovlarning ham xizmatlari beqiyos. 16 noyabr butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda Xalqaro bag'rikenglik kuni sifatida keng nishonlanadi. Shamsuddinxon Boboxonovning mustaqillikning ilk yillarida xalqimiz milliy qadriyatiga aylangan bag'rikenglik borasidagi ilmiy faoliyatlarini e'tirof etib akademik Akmal Saidov Din ishlari bo'yicha qo'mitada 2024 yil noyabr oyida bo'lib o'tgan uchrashuvda, "Mustaqilligimizni ilk yillarida tolerantnost so'zini o'zbek tilida bag'rikenglik deb atashni taklif etgan sobiq muftiy, diplomat, sharqshunos olim Shamsiddinxon Boboxonov bo'ladilar", deb e'tirof etgan.

XX asrning 80-yillarida xalqimizning qon-qoniga singib ketgan, kundalik turmush tarziga aylangan islom diniga qarshi kurash yanada keskinlashdi. U bid'at va xurofot sifatida qoralandi. Biroq «din afyundir» degan dahriylik shiori xalqi-mizning qalbidagi dinga bo'lgan imon-ye'tiqodni so'ndira olmadi. O'sha davrdagi respublika rahbariyati mamlakatda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni ta'minlash va barqarorlikni saqlash uchun barcha chora va imko-niyatlarni safarbar etdi. To'planib qolgan muammolarni tezroq bartaraf etish uchun butun kuch va imkoniyatlar-ni jamlab, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish ke-rakligini uqtirdi. Bu borada zarur bo'lgan ishlarni amalga oshirildi. Shamsiddin Boboxonov muftiy bo'lgan paytlarida O'zbekiston mustaqillik



ostonasida turgan keskin bir paytda ildiz otayotgan turli xil yot g'oyalarga qarshi kurashuvchi, ijtimoiy birlik hamda diniy bag'rikenglik targ'ibotchisi sifatida xizmatlari katta. Muftiy Shamsiddin Boboxonov – O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi bilan birgalikda ijtimoiy barqarorlik hamda diniy bag'rikenglik borasida e'lon qilingan fatvolari – mazkur diniy-radikal g'oyalarga qarshi mustaqillik va birdamlikni mustahkamlashga qaratildi.

Shamsiddin Boboxonovning ijtimoiy birlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik borasida amalga oshirgan bir qator ezgu ishlarida ularning diplomatik faoliyatlari muhim rol o'ynaydi.

1981 yil yanvar oyida Toshkent Islom instituti rektori Shamsiddin Boboxonov Yevangeliya akademiyasi va SSSR bilan do'stlik jamiyatining mahalliy bo'limi takliflariga binoan 150 mingdan ortiq musulmonlar istiqomat qiluvchi G'arbiy Berlinga tashrif buyurib, u yerdagi seminarda ma'ruza qilgan. Tashrif chog'ida katolik-provaslav diniy rahnamolari bilan bo'lgan samimiy suhbat keyinchalik mustaqil O'zbekiston diniy bag'rikenglik g'oyasini ijrochisi sifatida tamal toshi bo'ldi.

Suriya Vaqf vaziri Muhammad al-Xatibning 1985 yil 16 iyundagi xatida Markaziy Osiyo musulmonlarining yangi muftiysi haqida quyidagi so'zlar yozilgan: «Shamsiddinxon mening qadrdon va aziz do'stim. Bu muhabbat va do'stlik unga otalaridan meros qolgan. Hadislarning birida «O'g'il — o'z otasining timsolidir» deyiladi... Shak-shubha yo'qki, bu inson padari buzrukvor kabi ulamolardandir. U keng qalbli, haqiqatgo'y va xudojo'y inson. Shamsiddinxonning bu fazilatlariga unga otasidan o'tgan». Shamsiddinxon Boboxonov Markaziy Osiyoda islom dinining barcha go'zal xislatlari, ommani birlashtiruvchi va yaxshilikka yo'llovchi qudrati, yaratuvchilik kuchi to'la namoyon bo'lishiga, uning hayotbaxsh yorqin nurlari yanada keng jilolanishiga katta hissa qo'shgan taniqli diniy alloma va jamoat arbobi sifatida tarixda qoldi.

Afg'onistondagi sovet siyosatini qoralash avjiga chiqqan 1980 yilsentyabr oyida «XV hijriy asr xalqlar orasida tinchlik va do'stlikdavi bo'lishi lozim» shiori ostida Toshkentda rejalashtirilgan Xalqaro konferensiya Ziyovuddin hamda Shamsiddin Boboxonovlar boshchiligida o'tkazilgan. Musulmon mamlakatlari orasida o'zaro diplomatik aloqalarning mustahkamligi yo'lida Toshkent anjumanida Suriya Vaqf vaziri Muhammad al-Xatib boshliq delegatsiya, Iordaniyadagi Iyerusalimni ozod qilish Qo'mitasi raisi As-Sayex, Yaman Vaqf va islomiy masalalar bo'yicha vazirligidan Yaxyo Kaxtan boshliq delegatsiya, jami Yevropa, Osiyo va Afrikadagi 35 davlatning 91 vakili ishtirok etishiga erishilgan. Konferensiya ishtirokchilariga O'zbekistonda nashr qilingan muqaddas Qur'on, Imom Al-Buxoriyning «Kitab-ul-Adab alMufrad», Abu Iso at-Termiziylarning «AshShamail an-Nabaviyya» asarlari, Ziyovuddin Boboxonovning arab, ingliz, fors tillaridagi «Sovet mamlakatida islom va musulmonlar» kitobi, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari idorasining arab, fors, ingliz va fransuz tillarida chop etiladigan «Sovet Sharqi musulmonlari» jurnalining yangi sonlari tarqatilgan. Bu asarlarni tayyorlash va nashr qilishga Shamsiddin Boboxonov boshchilik qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Hasanov. Mustaqillik va bag'rikenglik sinovlari. – Toshkent: Toshkent Islom Universiteti; 2003 yil
2. U.Uvatov. Buyuk yurt allomalari. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2016
3. Sh.Boboxonov. A.Mansur. Ming bir fatvo. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
4. U.Gafurov. O'zbekistonda islom ta'lim tizimi: shonli tarix, istibdod zulmlaridan omon qolish va nurli istiqbol
5. S.Saidqosimov. Ulug' insonlar ma'naviyati. – Toshkent: "Movarounnahr" nashriyoti 2014